

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAN-TA’LIM SOHASIDAGI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK

Aminov Mirobos Askar o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti

e-mail: mr4689959@mail.ru

Annotatsiya

O‘zbekiston respublikasida mana bir necha yildirki ijtimoiy sohada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarni amalga oshirishda ma‘lum tajribalar mavjud. Xususan, Davlat-xususiy sheriklik agentligining axborot tizimida keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra Xalq ta‘limi vazirligi, DXSH Agentligi va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan Toshkent shahrida 14 maktabni yangidan qurish, ta‘mirlash va qayta tiklash bo‘yicha DXSH loyihasi bo‘yicha konsalting xizmati shartnomasiga imzo qo‘yildi.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, davlat-xususiy sheriklik, O‘zbekiston Respublikasi, Konstitutsiya, qonun, maktabgacha ta‘lim.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasiga asosan, “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidir[1]”. 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasi shaxslarning ushbu konstitutsiyaviy huquqlarini to‘ldiradi. Unga ko‘ra, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqedan qat‘i nazar, har kimga ta‘lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi[2]. Bizing tadqiqot ishimiz nuqtai nazaridan fikr bildiradigan bo‘lsak, bugungi kunda mamlakatimizda ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklikka juda kata e‘tibor berilmoqda hamda ushbu soha jadal suratlarda rivojlanmoqda.

Xususan, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning 64-moddasida ta‘lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik qoidalari mustahkamlangan. Ta‘lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sheriklarning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o‘z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorlikdir.



Nodavlat ta'lim tashkilotlari ta'lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilishi mumkin.

Ta'lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni prinsiplari, normalari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi[3].

Bundan tashqari, 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi[4] qonunning 5-moddasida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish ustuvor etib belgilangan. Qonunning 16-moddasiga asosan, maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat va nodavlat tashkiloti bo'lishi mumkin.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ham tashkil etilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga hamda faoliyat yuritilishiga yo'l qo'yilmaydi[5].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni[6] va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori[7]da professional ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida professional ta'lim tashkilotlarini tashkil etish choralari belgilandi.

Ta'lim sohasidagi yana muhim hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga asosan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI[8] qabul qilindi. Unda oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish, shuningdek, Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O'zbekiston Respublikasi oliy



ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

- oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasining 50 foizdan yuqori bo'lishi ta'minlanadi, sohada raqobat muhiti yaratiladi;

- O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantiriladi;

- respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasi xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetining birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kirishiga erishiladi[9].

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlariga asosan, Nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari soni 2019-yilda 5ta, 2020-yilda 10ta, 2023-yilda 20ta, 2025-yilda 28ta va 2030-yilda 35taga yetkazish nazarda tutilgan[10].

O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qaraladi. Xususan, 2017 yil 7 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni qabul qilinishi bu boradagi ishlarni jadal rivojlantirish yo'lida katta qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur Farmonga ko'ra mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etilmoqda.

O'zbekiston respublikasida mana bir necha yildirki ijtimoiy sohada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarni amalga oshirishda ma'lum tajribalar mavjud. Xususan, Davlat-xususiy sheriklik agentligining axborot tizimida keltirilgan ma'lumotlarga



ko'ra Xalq ta'limi vazirligi, DXSH Agentligi va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan Toshkent shahrida 14 maktabni yangidan qurish, ta'mirlash va qayta tiklash bo'yicha DXSH loyihasi bo'yicha konsalting xizmati shartnomasiga imzo qo'yildi.

Shu bilan birga, Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan 140 mingtadan oshiqroq quvvatga ega nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini (MTT) tashkil etish bo'yicha 3,7 trln. so'mlik loyihalarni (shundan 1,0 trln. so'm tadbirkorlar o'z mablag'lari va 2,7 trln. so'm imtiyozli kredit hisobidan) amalga oshirish maqsadida 1 400 dan ortiq tadbirkorlar bilan davlat-xususiy sherikchilik to'g'risida bitimlari imzolangan. Respublikada maktabgacha ta'lim qamrovi darajasi 52 foizga yetdi.

Bundan tashqari 2020-yilda Davlat-xususiy sheriklik asosida "Kundalik" Avtomatlashtirilgan axborot tizimi loyihasi bo'yicha bitim imzolandi. Ushbu loyihada xususiy tashabbuskor "Kundalik" MChJ tomonidan 10,3 mlrd so'm investisiya kiritiladi. Loyiha doirasida zamonaviy texnologiyalar va elektron tizimlarni joriy etish nazarda tutilgan. Elektron kundalik tizimini joriy qilish orqali 2027 yilgacha 2366 ta maktabda an'anaviy jurnallar o'rniga elektron jurnallar joriy qilinadi. Bu esa byudjet mablag'larini qisqarishiga olib keladi. Shuningdek, mazkur tizim orqali endilikda ota-onalar farzandlarining olayotgan baho va uy-vaziflarini onlayn kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'lishadi[11].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 08.12.1992 // URL:<https://www.lex.uz/acts/20596>. (The Constitution of the Republic of Uzbekistan. 08.12.1992 // URL: <https://www.lex.uz/acts/20596>)
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son
3. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son
5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son
6. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020-y., 06/20/6108/1483-son
7. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020-y., 07/20/4884/1484-son
8. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son



9. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son
10. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son
11. URL: <https://pppd.uz/2551>

